



NUFUZLI MOLIYA INSTITUTI BILAN IKKI TOMONLAMA ALOQALAR KENG MIQYOSDA RIVOJLANTIRILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29-iyun kuni Jahon banki ta’sischi davlatlarining “Shveysariya guruhi” yig‘ilishida ishtirok etish uchun mamlakatimizda bo‘lib turgan bankning Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha vitse-prezidenti Antonella Bassani boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Antonella Bassani davlatimiz rahbariga Jahon banki prezidenti Ajay Banganing samimiy salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

Jahon banki guruhi bilan strategik hamkorlikni Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan tarkibiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha keng miqyosda rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

So‘nggi yillarda ushbu nufuzli xalqaro moliyaviy institut bilan ikki tomonlama aloqalar va konstruktiv sheriklik misli ko‘rilmagan darajaga ko‘tarilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘tgan yil sentyabr oyida Nyu-York shahrida Jahon banki prezidenti bilan erishilgan

oliy darajadagi kelishuvlar izchil amalga oshirilmoqda.

Qo‘shma loyihalar portfeli 15 milliard dollardan oshdi. Toshkent shahrida Jahon bankining mintaqaviy ofisi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Moliyalashtirishning yangi mexanizmlari samarali joriy etilmoqda.

Joriy yilda bo‘lib o‘tadigan Jahon banki oliy rahbariyatining tashriflari va qo‘shma tadbirlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish muhimligi ta’kidlandi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning eng asosiy yo‘nalishlarini qamrab oluvchi yangi uzoq muddatli Mamlakat dasturini ishlab chiqish rejalari qo‘llab-quvvatlandi.

Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga ko‘maklashish, kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, davlat korxonalarini xususiy lashtirish bo‘yicha qo‘shma dasturlarni ilgari surish hamda iqtisodiyot tarmoqlariga sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda Jahon banki guruhining moliyaviy vositalaridan foydalanishni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Suv xo‘jaligi sohasini moliyalashtirish, inson kapitalini rivojlantirish, shuningdek, O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi o‘rmini yaxshilashga ko‘maklashish masalalarida yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ham ustuvor vazifalardan biri sifatida qayd etildi.

O‘za

XALQARO VALYUTA JAMG‘ARMASI BILAN SHERIKLIKNI KENGAYTIRISH MUHIMLIGI TA’KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xalqaro valyuta jamg‘armasi “Shveysariya guruhi”ning navbatdagi yig‘ilishida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan jamg‘arma boshqaruvchi direktorining o‘rinbosari Bo Lini qabul qildi.

Uchrashuv avvalida Bo Li davlatimiz rahbariga Xalqaro valyuta jamg‘armasi boshqaruvchi direktori Kristalina Georgiyevaning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Global moliya bozorlarining bugungi holati va rivojlanish istiqbollari muhokama qilindi.

Ushbu nufuzli xalqaro institut bilan amaliy hamkorlikni, eng avvalo, o‘tgan yil sentyabr oyida Nyu-York shahrida Xalqaro valyuta jamg‘armasi

rahbari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda erishilgan kelishuvlar doirasida yanada mustahkamlashning asosiy jihatlari ko‘rib chiqildi.

Yurtimizda pul-kredit, valyuta va fiskal siyosatni takomillashtirish kabi yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda jamg‘arma muhim o‘rin tutishi qayd etildi.

Makroiqtisodiy siyosat strategiyasi va raqamli to‘lovlar tizimini rivojlantirish, kapital

harakatini liberallashtirish, milliy statistika metodologiyasi va davlat daromadlarini boshqarishni takomillashtirish hamda erkin valyuta ayirboshlash kursini qo‘llab-quvvatlash masalalarida ekspertlik va texnik ko‘makni yanada kengaytirish zarurligi ta’kidlandi.

Mamlakatimiz iqtisodiy idoralari uchun kadrlar tayyorlash dasturlarini rivojlantirish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘za

PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING HUQUQIY MAQOMI VA IJTIMOIIY HIMOYASI MUSTAHKAMLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev profilaktika inspektorlari va jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini takomillashtirish, sohada kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Qayd etilganidek, yo‘l-patrul, patrul-post va qo‘riqlash xizmati xodimlarining xizmat yo‘nalishi va hududidan qat’i nazar aholi murojaatiga tezkor munosabat bildirishi juda muhim. Jinoyatchilikning oldini olishda huquqbuzarlik omillarini barvaqt aniqlash, ularni bartaraf etish hamda xavf guruhiga kiruvchi shaxslar bilan manzillli ishlash eng samarali profilaktika hisoblanadi.

Shu bilan birga, jinoyatchilikni baholashda raqamlar va ko‘rsatkichlarni taqqoslash amaliyotidan to‘liq voz kechilmagani ko‘rsatib o‘tildi. Shu bois, kriminogen vaziyatni baholashda faqat statistik ko‘rsatkichlarga tayanish emas, balki aholi ishonchi, huquqbuzarliklarning qayta sodir etilishi, xavf guruhidagi shaxslar bilan ishlash natijadorligi asosiy mezon bo‘lishi zarurligi qayd etildi.

Taqdimotdajamoatxavfsizligigabo‘linmalari faoliyati samaradorligini baholash mezonlari “aholiga xizmat ko‘rsatuvchi tizim” tamoyili asosida belgilanishi taklif qilindi. Bosh maqsad — aholining jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlardan roziligi va ishonchiga erishishdir.

Davomi 2-betda

QISHLOQ XO‘JALIGIDA GENDER STRATEGIYASI

Yangi O‘zbekistondagi izchil islohotlar markazida inson qadri turibdi. Inson qadri deganda biz, avvalo, jamiyatda har bir insonning qobiliyati, mehnati va imkoniyati to‘liq namoyon bo‘lishi uchun sharoit yaratishni tushunamiz. Bu tamoyilning eng muhim yo‘nalishlaridan biri xotin-qizlar qadr-qimmatini yuksaltirish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirishdir.

Davomi 3-betda

STRATEGIK SHERIKLIKNI YANADA MUSTAHKAMLASHGA INTILISH YUKSAK BAHOLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29-iyun kuni Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Gurbanguli Berdimuhamedovni tavallud kuni bilan samimiy qutlab, mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt-saodat, qardosh Turkmaniston xalqiga esa tinchlik-oso-yishtalik va ravnaq tiladi.

O‘z navbatida, Xalq Maslahati Raisi O‘zbekiston yetakchisiga Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning salomini yetkazdi.

Tomonlar strategik sheriklikning bugungi holatini yuksak baholadilar. Barcha

darajalarda yaqin va samarali aloqalar davom ettirilmoqda. Tovar ayirboshlash hajmi barqaror sur‘atda o‘smoqda, sanoat, energetika, transport va boshqa ustuvor tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. “Shovot — Toshvuz” savdo zonasi unumli faoliyat yuritmoqda.

Hududlararo, ishbilarmonlik va madaniy-gumanitar almashinuvlar kengaymoqda.

Yaqinda Ashxobod shahrida bo‘lib o‘tgan Hukumatlararo komissiya va

Ishbilarmonlar kengashi yig‘ilishlarining yakunlari yuksak baholandi.

Joriy yil oktyabr oyida Turkmanistonda bo‘lib o‘tadigan Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlik ko‘rish doirasida mintaqaviy kun tartibini muvofiqlashtirish va ilgari surishga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘za

BIRINCHI TURKOLOGIYA QURULTOYINING 100 YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN XALQARO KONGRESS QATNASHCHILARIGA

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Avvalo, turkiy dunyoning qadimiy va boy tarixi, ilmiy va madaniy merosini o‘rganish hamda targ‘ib etishdek g‘oyat muhim ishga munosib hissa qo‘shib kelayotgan siz, azizlarni bugungi xalqaro kongressning ochilishi bilan chin qalbidan samimiy muborakkobd etaman.

Bundan bir asr muqaddam, 1926-yilda Boku shahrida o‘tkazilgan birinchi Turkologiya qurultoyi turkiy xalqlarning ilm-fani va madaniy hayoti rivojida yangi davrni boshlab bergan katta tarixiy voqea bo‘lgan edi. Mazkur qurultoyda 11 nafar

taniqli o‘zbek ziyolisi ishtirok etganini biz hamisha faxr bilan esga olamiz.

Bugun ushbu qutlug‘ sanani xalqaro hamjamiyat vakillari ishtirokida keng nishonlar ekanmiz, ushbu anjuman turkiy xalqlarni birlashtirib turgan mushtarak qadriyatlarga yuksak hurmat va ehtirom ifodasidir.

Hech shubhasiz, milliy xotiramizda o‘chmas iz qoldirgan o‘sha tarixiy qurultoy haqida so‘z yuritganda, turkiy dunyo jadidlarining buyuk xizmatlarini yana bir bor e‘tirof etamiz.

Darhaqiqat, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida ulug‘ ma‘rifatparvar

Ismoil G‘aspirali “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oya asosida boshlab bergan ulkan ishlar butun turkiy olamda qudratli milliy uyg‘onish harakatiga aylandi.

Mazkur harakat saflarida O‘zbekistondan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Is‘hoqxon Ibrat, Abdulhamid Cho‘lpon va Abdulla Qodiriy kabi fidoyi ziyolilar faol ishtirok etib, turkiy xalqlar o‘rtasida ilm-ma‘rifat, ta‘lim-tarbiya va madaniy taraqqiyot g‘oyalarni keng yoyishda alohida jonbozlik ko‘rsatdilar.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

F A R M O N I

YOSHLAR KUNI MUNOSABATI BILAN YURTIMIZNING FAOL VA TASHABBUSKOR YOSH AVLOD VAKILLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish maqsadida o‘zining yuksak azmu shijoati, bilim va salohiyati, iste‘dod va qobiliyatini namoyon etib, turli sohalarda erishgan yutuqlari bilan Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga, uning xalqaro nufuzini yanada yuksaltirishga munosib hissa qo‘shayotgan, ona Vatanimizga mehri va sadoqati, namunali xulqi va odobi

hamda vatanparvarlik fazilatlarini bilan tengdoshlariga har tomonlama o‘rnak bo‘lib kelayotgan quyidagi tashabbuskor va yetakchi yoshlarimiz “Kelajak bunyodkori” medali bilan mukofotlansin:

Azatova Shaxzoda Alisher qizi — O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus filiali 4-bosqich talabasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Odiljonova Kamola Abdusovist qizi — Andijon davlat pedagogika

institutining 1-bosqich doktoranti, Andijon viloyati

Bafoyev Jaxongir Shuxrat o‘g‘li — Buxoro shahridagi “Bukhara books” xususiy kitob do‘konlari tarmog‘i ta’sischisi, Buxoro viloyati

Jalolova Mohira Sirojiddin qizi — Jizzax viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining neyroxirurgiya bo‘limi neyrojarrohi

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

Q A R O R I

“MARD O‘G‘LON” DAVLAT MUKOFOTI BILAN TAQDIRLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda alohida faollik ko‘rsatib, o‘zining bilim va qobiliyati, intiluvchanligi, tashabbuskorligi va samarali mehnati bilan Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, Yangi O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini yanada oshirishga katta hissa qo‘shib kelayotgan, yuksak ma‘naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy

pozitsiya, keng dunyoqarash va yuqori salohiyatga ega, xalq manfaat va yurt istiqboli uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan fidoyi va mard o‘g‘lonlarimizni munosib rag‘batlantirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat mukofotlari va geraldika bo‘yicha komissiyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent

shahrining iqtidorli yigitlarini fan, ta‘lim, tibbiyot, madaniyat, san‘at, sport, ishlab chiqarish, harbiy xizmat sohalari va huquqni muhofaza qilish organlaridagi faoliyatida erishgan alohida yutuqlari uchun “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan taqdirlash to‘g‘risidagi takliflari ilovadagi ro‘yxatga muvofiq ma‘qullansin.

Davomi 2-betda

NIYATI YORUG‘NING YO‘LI HAM YORUG‘



5

2026-yil 30-iyun, 130-son

BIRINCHI TURKOLOGIYA QURULTOYINING 100 YILLIGIGA BAGʻISHLANGAN XALQARO KONGRESS QATNASHCHILARIGA

Boshlanishi 1-betda

Ular gʻoyat ogʻir va murakkab sharoitda maktablar, gazeta va jurnallar, muzey, kutubxona va teatrlar tashkil etdilar, darslik va oʻquv koʻllanmalari, islohotchilik ruhidagi badiiy asarlari hamda siyosiy-ijtimoiy faoliyatlari bilan bepoyon turkiy makonga yangi zamon nafasini olib kirdilar.

Afsuski, mustabid siyosat tufayli bu qahramon ajdodlarimizning asosiy qismi mudhish qatagʻonlar qurboniga aylandi. Ammo ularning ezgu gʻoyalari, ilmiy merosi va maʼrifatparvarlik anʼanalari biz uchun bugungi kunda ham ibrat maktabi boʻlib xizmat qilmoqda.

Yangi Oʻzbekistonda tarixiy adolatni tiklash, jadid namoyandalarining merosini chuqur oʻrganish, ularning ilmiy va adabiy asarlarini keng targʻib etish, tabarruk nomlarini abadiylashtirish hamda yosh avlodni ularning maʼnaviy jasorati ruhida tarbiyalash borasida keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hurmatli kongress qatnashchilari!

Buyuk ajdodlarimizning bilim-maʼrifat, ochiq dunyoqarash, milliy hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan erkin va farovon hayot barpo etish haqidagi boʻy ilmiy-gʻoyaviy merosi biz uchun hozirgi kunda ham muhim ahamiyatga egadir.

Albatta, turkiy davlatlar bilan ilm-fan, madaniyat, taʼlim va innovatsiyalar sohalarida hamkorlikni yanada rivojlantirishda ham biz umumiy oʻtmishimizdagi ijobiy tajribalarga tayanamiz.

Tabiyki, dunyo yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qoʻyayotgan bugungi sharoitda turkologiya fani oldida ham yangi-yangi dolzarb vazifalar paydo boʻlmoqda.

Bugun axborot eng muhim qadriyatga aylangan zamonda yashayapmiz. Uni esa ommaviy axborot vositalari tarqatadi. Toʻgʻri, ayrim hollarda OAV odamlarga salbiy taʼsir koʻrsatishidan ham koʻz yumib boʻlmaydi.

PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING HUQUQIY MAQOMI VA IJTIMOY HIMOYASI MUSTAHKAMLANADI

Boshlanishi 1-betda

Buning uchun profilaktika inspektorlari, yoʻl-patrol, patrol-post va qoʻriqlash xizmatlari faoliyatini oʻzaro uygʻunlashtirish, ularning aholi murojaatlariga tezkor munosabat bildirish, fuqarolar bilan ochiq muloqot qilish, xavf guruhiga kiruvchi shaxslar bilan manzilli ishlash borasidagi vazifalarini yagona tizimga birlashtirish nazarda tutilmoqda.

Jumladan, yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlashda ayrim funksiya va vakolatlarni patrol-post hamda qoʻriqlash xizmatlariga, jamoat tartibini saqlashdagi baʼzi vakolatlarni esa yoʻl-patrol xizmatiga berish koʻzda tutilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi 9 mingga yaqin mahallada 10 mingdan ortiq profilaktika inspektori xizmat qilmoqda. Davlatimiz rahbari bu katta kuch ekanini taʼkidlab, jinoyatchilikni jilovlashda, avvalo, profilaktika inspektori ishini toʻgʻri tashkil qilish zarurligini koʻrsatib oʻtdi.

Amalda profilaktika inspektorlariga xos boʻlmagan 50 ga yaqin qoʻshimcha vazifa yuklatilgani, ayrim hollarda ularning mahallama-mahalla yurib, jinoyatchilikni jilovlash va aholi muammolarini hal etish oʻmiga boshqa ishlar bilan band boʻlib qolayotgani qayd etildi.

Shu munosabat bilan ishlab chiqilgan “Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorining maqomi toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi toʻgʻrisida axborot berildi. Unda profilaktika inspektorining huquqiy maqomi, vazifalari, huquqlari, majburiyatlari, kasbiy faoliyat kafolatlari, ijtimoiy-huquqiy himoyasi, ragʻbatlantirish va javobgarlik choralari aniq belgilanishi nazarda tutilgan.

Qonun loyihasiga koʻra, profilaktika inspektorining ustuvor maqsadi aholi ishonchining yuqori darajasiga erishish va xizmat hududida jinoyatchilikni jilovlashdan iborat boʻladi. U xizmat hududida tergovga qadar tekshiruv va profilaktikani amalga oshiruvchi mansabdor shaxs hisoblanadi.

Profilaktika inspektoriga faqat qonun bilan belgilangan vazifalar yuklanadi. Uning huquqlari, shaʼni, qadr-qimmati va ishtonlik obroʻsi davlat himoyasi ostida boʻladi.

Loyihaga koʻra, profilaktika inspektorining kasbiy faoliyatiga aralashish, unga taalluqli boʻlmagan topshiriqlar va asossiz yuklamalar berish taqiqlanadi.

Profilaktika inspektori huquqbuzarliklar profilaktikasi turini mustaqil ravishda tanlaydi, majburiy profilaktik koʻrsatmalar beraadi, taqdimnoma kiritadi va ijrosini talab qiladi, oʻzining profilaktik tadbirlar uslubini ishlab chiqadi hamda vakolati doirasida tegishli hujjatlarni rasmiylashtiradi.

Shu bilan birga, profilaktika inspektori zimmasiga ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksiga qatʼiy rioya qilish, huquqbuzarliklar toʻgʻrisida fuqarolarning har qanday shakldagi murojaatlarini qabul qilish va tezkorlik bilan munosabat bildirish, huquqbuzarlik sodir etilgan joyga darhol yetib kelish va tekshirish, jabrlangan fuqarolarga birinchi tibbiy yoki boshqa turdagi yordam koʻrsatish kabi majburiyatlar yuklatiladi.

Qonun loyihasida profilaktika inspektorlarining ijtimoiy-huquqiy himoyasi ham kuchaytirilmoqda. Hokimliklarga ularni xizmat xonasi va uy-joy bilan taʼminlash majburiyati yuklatilishi, faoliyatiga toʻsqinlik qilganlik uchun maʼmuriy javobgarlik belgilanishi, uzoq yil xizmat qilgan xodimlar

uchun pensiya taʼminoti boʻyicha qoʻshimcha kafolatlar nazarda tutilmoqda.

Profilaktika inspektorlariga qoʻshimcha vakolatlar ham berilishi rejalashtirilgan. Jumladan, ayrim maʼmuriy huquqbuzarliklar boʻyicha maʼmuriy jazo qoʻllash vakolati kengaytiriladi, ayrim moddalar boʻyicha maʼmuriy ogohlantirish jazosini qoʻllash imkoniyati yaratiladi.

Taqdimotda jamoat xavfsizligini taʼminlash uchun zamonaviy, vatanparvar va har tomonlama yetuk kadrlarni tayyorlash masalasiga ham alohida eʼtibor qaratildi. Chunki mahalla va tuman darajasida ishlayotgan xodimlar har qanday vaziyatda toʻgʻri qaror qabul qila oladigan bilim, malaka va koʻnikmaga ega boʻlishi shart.

Bu maqsadda Jamoat xavfsizligi universitetini transformatsiya qilish, kunduzgi taʼlim kvotasini 600 nafargacha, masofaviy taʼlim kvotasini 300 nafargacha oshirish taklif qilindi.

Universitetda huquqbuzarliklar profilaktikasi, yoʻl harakati xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash va qoʻriqlash faoliyati yoʻnalishlarida kadrlar tayyorlanadi. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati” yoʻnalishi va kafedra tashkil qilibni, xotin-qizlar, yoshlar va voyaga yetmaganlar, bozor va savdo majmualari boʻyicha profilaktika inspektorlari oʻqitiladi.

Taʼlim jarayoniga xavf-xatar tahliili, geoaxborot tizimlari, dron va robototexnika, profayling, konfliktologiya, muammoli sotsiologiya, ochiq manbalardan foydalangan holda raqamli tahlil, oilaviy mediatsiya kabi yangi innovatsion fanlarni kiritish rejalashtirilmoqda.

Ichki ishlar organlarida kadrlar tayyorlashning taʼlim klasteri ham

shakllantiriladi. Bu jarayonda umumiy oʻrta taʼlimdan boshlab idoraviy ixtisoslashtirilgan maktab-internet, akademik litseylar, ichki ishlar texnikumlari, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi va malaka oshirish institutlarigacha boʻlgan uzluksiz tizim yoʻlga qoʻyiladi.

Kasbiy taʼlim tizimini joriy etish doirasida Namangan va Samarqand texnikumlarida oʻrta-maxsus maʼlumotga ega ofitser va safdorlar tayyorlanadi. Oʻquv jarayonida yuridik-texnik taʼlim, jismoniy bardoshlik, jangovar shaylik, raqamli texnologiyalar, kasbiy taʼlim, birinchi tibbiy yordam, dron va AT platformalar bilan ishlash kabi yoʻnalishlarga alohida eʼtibor qaratiladi. Dual taʼlim asosida nazariya va amaliyot uygʻunlashtiriladi.

Ichki ishlar vazirligi akademiyasini ham transformatsiya qilish taklif etildi. Akademiya faoliyati “taʼlim — tadqiqot — amaliyot” zanjiri asosida qayta tashkil etilib, jamoat xavfsizligini taʼminlash, tezkor-qidiruv faoliyati, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish, ekspert-kriminalistika va ijtimoiy reabilitatsiya yoʻnalishlarida ixtisoslashgan maktablar shakllantiriladi.

Yangi dual taʼlim matritsasi asosida kursantlar “oʻqish — amaliyot — faoliyat” tamoyili boʻyicha tayyorlanadi. Rahbar kadrlar malakasini oshirish tizimi tubdan takomillashtiriladi.

Prezidentimiz takliflarni maʼqullab, profilaktika inspektorlarini ortiqcha vazifalardan xalos etish, ularning huquqiy maqomi va ijtimoiy himoyasini mustahkamlash, jamoat xavfsizligi tizimini raqamlashtirish hamda kadrlar tayyorlashni zamonaviy talablar asosida tashkil etish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

OʻZA

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining

F A R M O N I

YOSHLAR KUNI MUNOSABATI BILAN YURTIMIZNING FAOL VA TASHABBUSKOR YOSH AVLOD VAKILLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TOʻGʻRISIDA

Boshlanishi 1-betda

Ziyodova Asal Isomiddin qizi — Qarshi shahridagi “Bolalar akademiyasi” nodavlat taʼlim muassasasi rahbari, Qashqadaryo viloyati

Istamtoshev Sulaymon Dovudovich — Navoiy ixtisoslashtirilgan sanʼat maktab-internati oʻqituvchisi, Navoiy viloyati

Soloxiddinov Qobiljon Komil oʻgʻli — Yangi Namangan tumanidagi “Qobil Jiga servis” avtoservisi rahbari, Namangan viloyati

Nurmatatova Pokiza Akmaljon qizi — Pastdargʻom tumanidagi “Kaja Games” milliy oʻyinlar startap loyihasi asoschisi, Samarqand viloyati

Raximberdiyev Temur Abbas oʻgʻli — Yangiyer shahridagi “Sesosino newenergy technology” xususiy korxonasi muhandis-texnolog, Sirdaryo viloyati

Abduxoliqov Akmal Qahramonovich — Angor tumanidagi “Aka-uka oltin yerlari” sabzavotchilik fermer xoʻjaligi boshligʻi, Surxondaryo viloyati

Yunusova Ozoda Ulugʻbek qizi — “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Mis boyitish fabrikasi yanchish va flotatsiyalash sexi flotatori, Toshkent viloyati

Odilov Hamidjon Valijon oʻgʻli — Fargʻona shahridagi “TruDispatch” xususiy logistika korxonasi rahbari, Fargʻona viloyati

Rahimova Sevinch Hamroyevna — Karate boʻyicha Oʻzbekiston milliy terma jamoasi aʼzosi, Xorazm viloyati

Mirfazlullayeva Azizaoy Maxmudjon qizi — Sergeli tumanidagi “Farogʻatli” mahalla fuqarolar yigʻini yoshlar yetakchisi, Toshkent shahri

Aslonova Laylo Olimovna — Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi

Mamasaidov Muhammadsaid Muhammadqosim oʻgʻli — “Tahrirchi” sunʼiy intellekt platformasi asoschisi

Moʻydinova Zilola Voxid qizi — Bojxona institutining bojxona toʻlovleri va statistikasi kafedrası oʻqituvchisi

Mustayeva Sabina Ruslanovna — “Oʻzbekkonsert” davlat muassasasi xonandasi

Safolov Firuzjon Rasuljonovich — “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyatining Parvoz xizmati departamenti “A-321” havo kemasi uchuvchisi

Xujamberdiyeva Lobarxon Xaydar qizi — Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining 2-bosqich kursanti

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,
2026-yil 29-iyun

SH. MIRZIYOYEV

YAXSHI ODAMLAR QURSHOVIDAMAN



Sharofiddin TOʻLAGANOV,
OʻZMTRK “Oʻzbekiston 24”
radiokanali xalqaro
tahliliy dasturlar guruhi
muallif-sharhlovchisi,
“Doʻstlik” ordeni sohibi

Jurnalistika hayratlariga oshno boʻlib kelayotganimga 35 yildan oshdi. Koʻplab ustozlar oʻgiti bilan mehnatdan qochmadim. Doim odamlarga yaxshilik qiladigan, har qanday qiyinchiliklarni yengib boʻlsa-da, oldinga

intiladigan, ezigulik yoʻlida charchash nimaligini bilmay, el oqlishiga erishgan insonlar qurshovida boʻldim. Ulardan juda koʻp narsa oʻrgandim. Endi esa oʻrganganlarimni oʻzim ulashyapman. Hozir yosh ijodkorlar menga “ustoz” deb murojaat qilsa, qalbindan ajib hislar oʻtadi.

Bugun axborot eng muhim qadriyatga aylangan zamonda yashayapmiz. Uni esa ommaviy axborot vositalari tarqatadi. Toʻgʻri, ayrim hollarda OAV odamlarga salbiy taʼsir koʻrsatishidan ham koʻz yumib boʻlmaydi. Buni biz dunyoda yuz berayotgan hodisalarning aksariyat hollarda notoʻgʻri talqin qilinyotganida koʻrib, bilib turibmiz.

Jamoatchilik fikrini chalgʻitish, u yoki bu mamlakatni yomonotliq qilish, oʻzi tanlagan taraqqiyot yoʻlidan qaytarishga urinishlar zamirida tor manfaatlar yotibdi. Odamlar ongini, dunyoqarashini yot gʻoyalarni taʼsiriga boʻysundirishga intilish holatlari aynan OAV orqali amalga oshirilayotgani tashvishlidir. Bizning burchimiz ana shu haqiqatni oʻquvchilarimiz, tinglovchilarimiz va tomoshabinlarimizga toʻgʻri anglata olishdan iborat.

Shuning uchun mamlakatimizda soʻz va matbuot erkinligini kuchaytirish, xalqimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini taʼminlash, davlat va jamiyat boshqaruvida ochqlik

va oshkoralik tamoyillarini mustahkamlash soha vakillari oldidagi eng dolzarb vazifalardan.

Bu yil ham kasb bayramimiz arafasida davlatimiz rahbarining eʼtibori bilan ana shu yoʻlida fidoyilik koʻrsatayotgan bir guruh OAV xodimlari mukofotlandi. Biz, jumalistlarning yurt va xalq manfaatini yoʻlidagi xizmati doim eʼtiborda ekanini yana bir bor his qildik. Davlatimiz rahbarining “Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash toʻgʻrisida”gi farmoniga koʻra taqdirlanganlar roʻyxatida mening ham ismim bordigi zimmamdagi masʼuliyatni karrasiga oshiradi. Mehnatlari eʼtirot etilgan hamkasblarimning koʻpini aniyman, ijodiy hamkorlik qilaman. Qay birlari ustozim darajasida boʻlsa, yana qaysilardir meni oʻziga ustoz biladi. Bu faxrlanishga arziydigan tuygʻu.

Bugun milliy matbuotimiz ravnaqiga munosib hissa qoʻshayotgan hamkasblarimga tilagim: global axborot maydonida milliy manfaatlarimizni himoya qilish, yangi Oʻzbekistondagi demokratik islohotlar, yangilanish jarayonlari va erishilayotgan yutuqlarni keng yoritish yoʻlida charchashmasin. Aslida, biz, jumalistlarni birlashtirib turgan kuch ham ana shu ezgu maqsad, yaʼni xolislik, haqqoniylik va adolatparvarlik tamoyillariga tayangan holda Vatani va xalq manfaatini yoʻlida xizmat qilishdir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining

Q A R O R I

“MARD OʻGʻLON” DAVLAT MUKOFOTI BILAN TAQDIRLASH TOʻGʻRISIDA

Boshlanishi 1-betda

2. “Mard oʻgʻlon” davlat mukofoti bilan taqdirlanganlarga sovrindorlik diplomlari va koʻkrak nishonlari tantanali vaziyatda topshirilsin.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi “Mard oʻgʻlon” davlat mukofoti sovrindorlarining har biriga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida pul mukofoti berilishini taʼminlasin.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,
2026-yil 29-iyun

keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Oʻzbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Gʻ.Gʻ.Mirzayev zimmasiga yuklansin.

SH. MIRZIYOYEV

*Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining
2026-yil 29-iyundagi PQ-241-son qaroriga ilova*

“Mard oʻgʻlon” davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar ROʻYXATI

Allashov Raxim Tolibay uli — Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy qism guruh mutaxassisi (Qoragʻalpogʻiston Respublikasi)

Alimbayev Nodirbek Turgʻun oʻgʻli — Toʻrtkoʻl tumanidagi “Ullubogʻ” ovul fuqarolar yigʻini yoshlar yetakchisi (Qoragʻalpogʻiston Respublikasi)

Teshaboyev Oybek Abdumannob oʻgʻli — Andijon davlat texnika institutining doktoranti (Andijon viloyati)

Xursanov Doniyorbek Damirjon oʻgʻli — Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy qism guruh komandiri (Andijon viloyati)

Rahimov Daler Rahmonovich — 58-xalqaro kimyo olimpiadasi ilmiy qoʻmitasi aʼzosi (Buxoro viloyati)

Mustaqimov Sherali Shuhrat oʻgʻli — Oʻzbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining harbiy qism guruh komandiri (Namangan viloyati)

Karimov Umidjon Javlon oʻgʻli — Toshkent shahar bojxona boshqarmasining boʻlim katta tezkor vakili (Namangan viloyati)

Elbekov Shohzodbek Elbek oʻgʻli — Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining harbiy qism otryad komandiri (Samarqand viloyati)

Xudoyberdiyev Dilshodjon Rayimberdi oʻgʻli — Samarqand viloyati suv sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabining akademik eshak hush boʻlimi sportchisi (Samarqand viloyati)

Xolmatov Otabek Shuxrat oʻgʻli — Sirdaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasining otryad katta mutaxassisi (Sirdaryo viloyati)

Musurmonqulov Bektosh Qodirberdi oʻgʻli — Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy qism guruh mutaxassisi (Sirdaryo viloyati)

Yuldoshev Dilshodbek Ulugʻbek oʻgʻli — Toshkent shahar ichki ishlar bosh

O'tgan yil oxirida davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida "Har yili aholimiz o'rta 2 foiz o'smoqda, 1 milliondan ziyod o'g'il-qizlarimiz katta hayotga kirib kelmoqda. Yoshlarimizga qarab, ular erishayotgan yutuqlarni ko'rib, ko'ksimiz tog'dek ko'tariladi, qanday ulkan bunyodkor kuch safimizga qo'shilayotganidan g'ururlanib ketamiz", degan so'zlar naqadar hayotiy ahamiyat kasb etganini amaliy islohotlar va yoshlarning shijoati oshgani ko'rsatib turibdi.



Mirzayusuf RUSTAMBOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti
boshlig'i, yuridik fanlar doktori,
professor

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida esa yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillarga o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, intellektual salohiyatini oshirish hamda ilmiy faoliyatini rag'batlantirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlikni kamaytirish belgilab beriladi. Shuningdek, yoshlar o'rtasida AT sohani yanada ommalashtirish, xizmatlar eksportini oshirish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish bo'yicha yillar kesimida aniq va strategik chora-tadbirlar ko'rsatib o'tildi. Strategiyada ko'zda tutilgan masalalar ijrosi hozir amaliy bosqichda bo'lib, xususan, AT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksportini 5 milliard dollarga yetkazish, sohada 300 ming yoshni band qilish hamda BM'Tning Elektron hukumatni rivojlantirish indeksida yurtimizni

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi faqatgina davlat taraqqiyoti dasturi emas, balki millionlab yoshlarning orzu-maqсадlarini aniq manzilga yo'naltiruvchi "yo'l xaritasi"dir.



MAMLAKATNING ENG ISHONCHLI TAYANCHI

dunyoning yetakchi 30 davlati qatoriga kiritish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Bugungi kunda mamlakatimizda startaplar soni 950 taga yetgan va bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 37,5 foiz o'sish bo'lganini anglatadi. Shu bilan birga, venchur fondlar soni 22 taga yetib, ekotizim qiymati 4,3 milliard dollar deb baholalanayotgani, startaplarga kiritilgan investitsiyalar hajmi 132 million dollarni tashkil etayotgani yoshlarimizning taklif va tashabbuslari "qog'ozdan bozorga" ko'chayotganidan, investorlar ishonchini qozonayotganidan dalolatdir.

Shuningdek, ta'lim olish, til o'rganish bilan bog'liq masalalar, xususan, sun'iy intellekt orqali zamonaviy kasblar va fanlarni bepul o'rganuvchi yoshlar sonini 3 million nafarga, intellektual o'yinlarga jalb qilingan yoshlar qamrovini 10 foizga yetkazish, har yili 500 nafargacha iste'dodlarning TOP-300 talik ro'yxatga kiradigan nufuzli oliy ta'lim tashkilotlarida o'qishini tashkil etish kabi aniq rejalar ijrosi ham yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, albatta.

Yana bir muhim vazifa sifatida "Armiya va yoshlar — bir tanu bir jon" tamoyili asosida to'garaklar va boshqa harbiy-vatanparvarlik tadbirlariga jalb etiladigan yoshlar sonini 675 ming nafarga yetkazish belgilangan. Bu, shubhasiz, mamlakatning intellektual va ma'naviy xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Zero, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi yosh avlod qalbida vatanga muhabbat, milliy g'urur, fidoyilik va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantiradi. Eng muhimi, armiya va yoshlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik mustahkamlanib, mudofaa salohiyati uchun munosib kadrlar zaxirasi yaratiladi. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan har bir yosh yangi O'zbekistonning ertangi kuni, tinchligi va taraqqiyotining ishonchli kafolatidir.

Orzular va imkoniyatlar xaritasi

Hozirgi kunda yurtimiz aholisi 38 million nafarni tashkil etayotgan bo'lsa, shundan 9,5 millioni yoki qariyb 25 foizi 14-30 yoshdagi yigit-qizlardir. Shu asosda har yili 270 mingta yosh oila shakllanmoqda. Ushbu demografik o'sish yoshlar siyosatiga uzoq muddatli va tizimli yondashuvni talab etmoqda.

Bunday yondashuv o'z vaqtida amalga oshirilganda yoshlarning sifatli ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, zamonaviy mehnat bozorida munosib o'rin topishiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash mumkin. Yoshlarda vatanparvarlik, tashabbuskorlik va mas'uliyat tuyg'ularini mustahkamlash maqsadida Prezidentimizning joriy yil 20-apreldagi farmoni bilan "Yangi

O'zbekiston yoshlari — 2030" strategiyasi tasdiqlandi.

Ushbu strategiya mamlakatimiz rahbarining yoshlar bilan doimiy muloqotlari davomida navqiron avlod vakillari tomonidan bildirilgan fikr, taklif va tashabbuslar asosida shakllangan bo'lib, ularni davlat darajasida tizimli va manzilli hal etishning strategik chora-tadbirlari belgilab berilgan.

Xususan, strategiyada har yili 600 ming yoshning bandligini ta'minlash, 2030-yilga qadar 900 ming yoshni volonteryolikka jalb etish, o'quv markazlari sonini 90 mingga yetkazish, 450 ming yoshning xorijiy tillar bo'yicha bilimini B2 darajasiga olib chiqish, yoshlar jinoyatchiligini kamaytirish, har yili kamida 10 mingga yosh oilani ipoteka orqali qo'llab-quvvatlash kabi vazifalar nazarda tutilgan.

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida volonteryolik jam'armasidan 100 million so'mgacha grantlar ajratish, faol yoshlarni davlat tashkilotlarida pulli amaliyotga jalb qilish, ilg'or ijodkorlar uchun Prezident mukofotini, shuningdek, kitob va book-kafelar joylashgan "Yoshlar ko'chalari"ni tashkil etish rejalashtirilgan.

Yoshlar salomatligini mustahkamlash, ruhiy xavf omillarini qisqartirish, psixologik ko'mak tizimini kuchaytirish masalalari ham strategiyada o'z aksini topgan. Xususan, ruhiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar ulushini 40 foiz kamaytirish, tunu kun ishlaydigan psixologik aloqa markazini tashkil etish, sport bilan shug'ullanuvchi yoshlar ulushini 25 foiz oshirish nazarda tutilmoqda.

Ahamiyatli jihati, birgina 2026-2027-yillarda 7 ta yo'nalish bo'yicha 56 ta loyiha amalga oshiriladi. Jumladan, "Yangi avlod tadbirkorlari" dasturida Garvard, Stenford, MIT, London biznes maktabi kabi nufuzli ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda 20 ming yoshni o'qitish, 1 mingga biznes loyihani saralab olish va ularga 3 yilgacha muddatga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha ssuda berish rejalashtirilgan.

Bir so'z bilan aytganda, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi faqatgina davlat taraqqiyoti dasturi emas, balki millionlab yoshlarning orzu-maqсадlarini aniq manzilga yo'naltiruvchi "yo'l xaritasi"dir.

Oliy ta'lim va mehnat bozori: talab va taklif uyg'unligi

Oliy ta'lim sohasida so'nggi yillarda erishilgan yutuqlar milliy tariximizda mutlaqo kuzatilgan bo'lib, bu boradagi sifat ko'rsatkichlarini oshirish eng dolzarb masalalardan. Yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi hozirgi vaqtda 44 foizni tashkil etgani va 2030-yilgacha 50 foizdan oshirish



ko'zda tutilayotgani fikrimiz dalildir. Agar 2017-yildagiga qiyoslansa, mazkur ko'rsatkich olti martagacha ko'payib, 1,7 millionga yetgani ma'lum bo'ladi.

UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda talabalar soni 269 milliondan ortiq bo'lib, 18-24 yoshli yigit-qizlarning oliy ta'lim bilan qamrovi o'rta 43 foizni tashkil etadi. Demak, O'zbekiston bu borada o'rta 43 foizni oshirish zarur. Hozirgi yilgi yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi o'rta 43 foizni tashkil etadi. Demak, O'zbekiston bu borada o'rta 43 foizni oshirish zarur. Hozirgi yilgi yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi o'rta 43 foizni tashkil etadi.

Oliy ta'limning sifat ko'rsatkichlari tobora yaxshilanmoqda. 2025-yil yakunlariga ko'ra, mamlakatimizning 7 ta oliy ta'lim muassasasi QS xalqaro reytingiga, 4 ta mahalliy universitet Times Higher Education reytingiga, 59 ta oliy ta'lim muassasasi esa Times Higher Education Impact reytingiga kiritilgan, shundan 12 tasi dunyoning eng yaxshi 1000 ta universiteti qatoridan joy olgani fikrimiz tasdiq'idir.

Endilikda "U10 — O'zbekistonning global darajadagi ilg'or universitetlari" dasturi amalga oshirilishi, dastur doirasida tanlov asosida 10 ta oliy ta'lim tashkilotiga milliy tadqiqot universiteti maqomi berilib, ularda ilmiy klasterlar tashkil etilishi ham yangi imkoniyatlarni yaratadi.

Oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar faoliyatida ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni kengaytirishga qaratilgan yangi tizim taklif etilmoqda. Oliyoghlarning "spin-off" korxonalarini tashkil etish orqali "tarmoq — korxona — oliy ta'lim tashkiloti — ilmiy

tashkilot" zanjiri asosida innovatsion mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish nazarda tutilyapti.

OTM bitiruvchilari bandligini ta'minlashda individual ishlash, iqtisodiyot tarmoqlaridagi bo'sh ish o'rinlariga yo'naltirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, oliyoghlarda karyera markazlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarni ish bilan band qilish borasida barcha oliyoghlarda karyera markazlari faoliyati to'liq yo'lga qo'yilib, natijadorligiga qarab rag'batlantirib borish ko'zda tutilmoqda. Markazlar faoliyati "Bitiruvchi sifati indeksi" orqali baholalanib, eng yuqori natija ko'rsatgan 20 ta oliyoghlarning karyera markaziga 500 million so'mdan ajratiladi.

Muxtasar aytganda, ta'lim muassasalari mehnat bozori ehtiyojlariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlagan taqdirdagina bitiruvchilarning bandligi, iqtisodiyot tarmoqlarining samaradorligi va mamlakat taraqqiyoti ta'minlanadi. Zero, zamonaviy iqtisodiyot diplomli emas, balki bilimli, amaliy ko'nikmalarga ega va o'zgaruvchan sharoitlarda tez moslasha oladigan mutaxassislarni talab qiladi.

Armiyadan qaytib, oliy o'quv yurtlarida tahsil olmoqchi bo'lgan yoshlarga xorijiy til va fan sertifikatli olish xarajatlari qoplab beriladi. Ular oliyoghlarga kontraktga kirs, foizsiz ta'lim krediti ajratiladi, armiyadan qaytgach, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagidagi yoshlarning kredit xarajatining 6 foizi davlat tomonidan qoplanadi. Xususiy sektorda faoliyat yuritmoqchi bo'lgan yoshlarga kasbni egallash va sertifikat olish xarajatlari to'lab beriladi. Bu ularga davlat tomonidan qaratilayotgan e'tiborning yaqqol namunasidir.

Shu jihatdan muddatli harbiy xizmat nafaqat yurt va el oldidagi muqaddas burchni ado etish, balki yoshlarning jismoniy va ma'naviy kamoloti, yetakchilik qobiliyati hamda hayotiy tajribasini shakllantiruvchi muhim maktabga aylanmoqda.

Qizlarimiz muvaffaqiyati — kelajak uchun poydevor

Bugun yangi O'zbekiston taraqqiyoti haqida so'z ketganda, ilm-fan, ta'lim, tadbirkorlik, madaniyat va sport sohalarida yuksak natijalarga erishayotgan qizlarning muvaffaqiyatlarini alohida ta'kidlash lozim. Chunki mamlakatning ertangi taraqqiyoti nafaqat zamonaviy infratuzilma yoki iqtisodiy ko'rsatkichlar, balki bilimli, tashabbuskor va vatanparvar qizlarning salohiyati bilan ham belgilanadi. Jamiyatda ayollar va qizlarning o'rni qanchalik yuksak bo'lsa, mamlakatning taraqqiyoti salohiyati ham shunchalik kuchli hamda barqaror bo'ladi.

Birgina sport sohasida 2025-yilda qizlarimiz jahon arenalarida 167 ta oltin, 193 ta kumush va 243 ta bronza medalni qo'lga kiritdi.

Ayni paytda oliyoghlarda o'qiyotgan qizlarning soni 904 ming nafardan oshib, jami talabalarning 54 foizini tashkil etgani ham tariximizda kuzatilgan noyob hodisa. Ushbu ko'rsatkich nafaqat gender tenglikni ta'minlash yo'lidagi muhim tizim, balki kelajakda iqtisodiyot, ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda uchun yuqori malakali kadrlar salohiyati shakllanayotganini ham anglatadi.

2025-yilda O'zbekistonlik 60 qizning dunyodagi eng nufuzli oliyoghlarga o'qishga kirgani, stajyor-tadqiqotchilar va doktoranturada tahsil olayotganlarning 8,5 ming nafari, ya'ni 61 foizini xotin-qizlar tashkil etayotgani ham islohotlar samarasidir.

Kelgusida esa bu borada yanada ko'proq imkoniyatlar yaratiladi. Xususan, yangi o'quv yilidan boshlab ehtiyojmand oilalardagi ayollarni uchun davlat granti kvotasi 2 karr oshirilib, 4 mingga yetkaziladi. TOP-300 talikdagi oliyoghlarni bilan qo'shma ta'lim asosida magistratura bosqichida ta'lim olayotgan talaba qizlarning kontrakt pullari davlat tomonidan to'lab beriladi.

Har yili xotin-qizlarning innovatsion o'yalarini qo'llab-quvvatlash uchun kamida 10 ta yo'nalish bo'yicha startap tanlovlar o'tkazilishi, bunda har bir yo'nalish g'olibiga Innovatsiya jamg'armasidan 500 million so'mgacha grant berilishi ko'zda tutilayotgani, maktablarning 11-sinfini bitirib, davlat texnikumlariga kirgan qizlarni kasbga o'qitish to'liq davlat granti asosida bo'lishi ham farovon jamiyat uchun qo'yilayotgan mustahkam poydevordir.

Prezidentimiz serg'ayrat qizlarni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlab kelayotir. Xususan, 2026-yilning o'zida 166 ming xotin-qiz zamonaviy kasb va tadbirkorlikka, yana 100 ming nafar AT sohaga o'qitildi.

"Yangi O'zbekiston — yoshlar mamlakati" g'oyasi bugun amaliy natijalar bilan mustahkamlanib, yosh avlodning shaxsiy muvaffaqiyatlari taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda. Ularga yaratilayotgan imkoniyatlar, ta'lim, innovatsiya va tadbirkorlik sohasidagi islohotlar ularning salohiyatini to'liq namoyon etishiga xizmat qilib, shaxsiy yutuqlarni jamiyat taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratmoqda. Zero, shaxsiy muvaffaqiyatlar umumiy taraqqiyot bilan uyg'unlashgan taqdirdagina mamlakat barqaror rivojlanadi va yoshlar davlatning eng ishonchli tayanchi hamda asosiy drayveriga aylanadi.



Munosabat



Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi

Davlat yoshlarga qanday e'tibor qaratmoqda?

Bugun yosh avlodga sarmoya kiritish ikki asosiy yo'nalishda amalga oshirilmoqda: ish o'rinlari ochish va ta'limni rivojlantirish. Davlat boshlang'ich ta'lashiruvchi vazifasini zimmasiga olib, o'tgan avlodlar faqat orzu qilgan vositalarni taklif etmoqda.

Xususan, yoshlar orqali inson kapitalini rivojlantirish — alohida e'tibor markazida.

Har yili mamlakatimizda eng jo'shqin bayramlardan biri — Yoshlar kuni keng nishonlanadi. Shu o'rinda bir jihatga alohida e'tibor qaratish lozim: bugunga kelib bu kun konsert va festivallar o'tkaziladigan oddiy bayram doirasidan allaqachon chiqib ketdi. Aholisining 60 foizdan ortig'ini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadigan davlat uchun bu sana natijalarni sarhisob qilish va yangi, yanada ulg'vor, keng ko'lamli islohotlarni boshlash pallasiga aylandi. Zero, O'zbekistonda "yoshlar" so'zi allaqachon asosiy strategik resurs va inson kapitalining ma'nodoshiga aylangan.

Bilimga intilgan yigit-qizlar kuchli moddiy qo'llab-quvvatlanmoqda. Jumladan, davlatimiz xalqaro chet tilini bilish imtihonlari (IELTS, TOEFL) xarajatini qoplaydi, ehtiyojmand oila farzandi bo'lgan talabalar uchun oliy ta'lim muassasalarida kontrakt narxining yarmigacha bo'lgan qismini to'laydi. Shuningdek, ATga o'qitish xarajatini qoplashni zimmasiga oladi.

Shu bilan birga, yoshlar uchun o'zini o'zi band qilish vositalari ko'lami kengaytirilmoqda. Xususan, "Yoshlar daftri" tizimi va mahalladagi yoshlar yetakchilari instituti orqali minglab yigit-qizlarga zarur uskunalar, tikuv mashinalari, kompyuter sotib olishi va hatto dehqon xo'jaligi yuritishi uchun subsidiya berilmoqda.

"Yoshlar biznesi" dasturi esa 2026-yilning muhim yangiligi bo'ldi. Xususan, Prezidentimizning shu yil 1-iyundagi qarori ushbu siyosatning yangi va eng ko'p muhokama qilingan masalaning tasdiq'iga aylandi. Hujjatga ko'ra, 31 yoshgacha bo'lgan fuqarolar uchun maxsus kreditlash dasturi ishga tushirildi.

Bu shunchaki mavhum pul emas, balki muayyan shartlar bilan 7 yilgacha muddatga 100 million so'mgacha bo'lgan manzilli

mikromoliyalashtirish imkoniyatidir: asosiy qarz bo'yicha imtiyozli davr 1 yilgacha. Bundan tashqari, chet tillar, raqamli texnologiyalarni o'rganish va zamonaviy kasblarni egallash uchun 20 million so'mgacha, SMM, mobilografiya,



frilans, onlayn do'konlar va o'zini o'zi band qilish sohasidagi startaplar uchun 50 million so'mgacha moliyaviy ko'mak beriladi.

Kasanachilik, to'qimachilik ishlab chiqarishi va mahsulotlarni qayta ishlashni rivojlantirish ham e'tibordan chetda qolmagan. Bu sohalarda ish boshlash uchun 50 million so'mgacha qarz olish mumkin. Kichik novvoyxonalar va qandolatchilik ishlab chiqarishini ochildi uchun esa 100 million so'mgacha beriladi.

Ushbu qaror bo'yicha qo'llab-quvvatlovning ahamiyati shundaki, u boshlang'ich to'siqlarni bartaraf etadi: garov, tajriba va boshlang'ich kapitalning yo'qligi endi muammo emas. Davlat ilk marotaba moliyaviy vositalarni yoshlarning zamonaviy turmush tarziga har tomonlama moslashtirdi.

Qolaversa, ushbu qaror zamonaviy raqamli mutaxassislarni tan oladi va qo'llab-quvvatlaydi. Davlat an'anaviy banklar ilgari "xavfli" va "jiddiy bo'lmagan" deb hisoblagan sohalarga pul ajratmoqda. Frilans va masofaviy ish, SMM va mobilografiya (kontentni suratga olish) internet-do'konlarni ishga tushirish shular jumlasidan.

Moliyaviy ko'mak — sovg'a emas, vosita

Yangi imkoniyatlar har doim jamiyatda qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ladi. Jamoatchilik fikri ikkiga bo'lindi: kimdir buni "oyoqqa turish" imkoniyati deb bilsa, kimdir har qanday qarz majburiyatlariga shubha bilan qaraydi. Haqiqat esa har doimgidek o'rta joylashgan. Shuni tushunish muhimki, agar odamning aniq rejasi, ishbilarmonlik tuyg'usi va intizomi bo'lmasa, ishi qarz bilan ham, qarzsiz ham barbod bo'lishi mumkin. Aksincha, tadbirli inson loyihani ishga solib, ajratilgan millionlarni, bank oldida majburiyati bo'lsa-da, ishlayotgan aktivga aylantira oladi.

Davlatimiz rahbarining ushbu qarorida yana bir band bor. Unga ko'ra, bitiruvchi kurs talabalarining bandligini ta'minlashga qaratilgan "Mening birinchi kasbim" dasturi ijrosi uchun beg'araz asosda 15 million AQSH dollari qiymatida mablag' ajratiladi. Qarorning ushbu bandi prinsipial jihatdan yangi davlat dasturi — "Mening birinchi kasbim"ni joriy etishga xizmat qiladi. 15 million dollar miqdoridagi beg'araz mablag'ning ajratilishi bitiruvchi talabalarning "Agar hamma joyda ish tajribasi talab qilinsa,

qanday qilib ish topish mumkin?" degan eng og'riqli muammosini hal qilishga qaratilgan.

Bunda 15 million AQSH dollari (ekvivalentda) davlat tomonidan beg'araz asosda ajratiladi. Ushbu mablag'ni qaytarish shart emas, u kreditga oylarda ish joyida ta'lim olish xarajatini qoplashi mumkin. Qolaversa, diplom olgunga qadar dastlabki kafolatlanadi: bitiruvchi kurs talabalari rasman ishga joylashish va mehnat bozoriga moslashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, ish beruvchilarni rag'batlantirish ham ko'zda tutilgan: davlat ushbu mablag'dan bitiruvchi kurs talabalarini ishga oladigan kompaniyalarni subsidiyalash uchun foydalanadi. Ish beruvchilar buning vositasida talabaga ish haqi to'lash, uning amaliyot o'tash yoki dastlabki oylarda ish joyida ta'lim olish xarajatini qoplashi mumkin. Qolaversa, diplom olgunga qadar dastlabki kafolatlanadi: bitiruvchi kurs talabalari rasman ishga joylashish va mehnat bozoriga moslashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Prezidentimizning ushbu qarori ijrosini tashkil etish, ta'minlash va nazorat qilishga alohida urg'u berilgan. Bu kreditdan puxta foydalanish shaffofligini ta'minlash, qo'shib yozishni bartaraf etish va haqiqiy bandlikni STIR/ISHSHIR orqali real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi.

Umuman, asosiy xulosa shuki, har qanday moliyaviy ko'mak uni oluvchidan mas'uliyat talab qiladi. Uni faqat puxta hisob-kitob qilingan, insonni zararga olib bormaydigan reja bo'lgandagina olish mumkin. Yoshlar kuni azmu shijoatli yigitlar va qizlar uchun eshiklar ochiq, vositalar mavjud ekanini eslatib turadi. Ammo bu imkoniyatlaridan qanday foydalanish, qanday sarflash, zamonaviy startapni ishga tushirish yoki imkoniyatni boy berish faqat yoshlarning o'ziga bog'liq. Kelajak allaqachon keldi. Faqat uni sog'lom fikr va aniq reja bilan qurish kerak.



Dunyoning eng nufuzli oliygohlarida tahsil olayotgan yoshlarimiz 500 nafardan, eng yaxshi 100 talik universitetlarda o‘qiyotgan o‘g‘il-qizlarimiz 3,5 ming nafardan oshgani ham navqiron avlod vakillarining jahon andozalari darajasida ta’lim olishiga qaratilgan e’tibordan dalolat beradi.

 yuz_official
  yuz.uz_news
  yuz.uz_news

NIYATI YORUG‘NING YO‘LI HAM YORUG‘

Yurtimizda keyingi yillarda yoshlarning salohiyatini ro‘yobga chiqarish, har jihatdan qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Ko‘makka muhtoj yoshlar bilan ishlash, bandligini ta’minlash, xorijiy tillar va kasb-hunarga o‘rgatish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida qilinayotgan ishlar navqiron avlod vakillarining bilimli, tashabbuskor va el-yurt koriga yaraydigan asl farzandlar bo‘lib kamol topishi yo‘lidagi ezgu harakatlardir.

Bugungi kunda respublikamiz bo‘yicha barcha mahallalarda yoshlar yetakchisi tizimi joriy etildi. Dunyoda o‘xshashi bo‘lmagan bu tizim orqali yuzlab, minglab yoshlarning bilim olishi ta’minlanayapti, ko‘pchiligi tadbirkorlikni yo‘lga qo‘ydi, bandligi ta’minlangan yoshlar bugun hech kimning ko‘magiga ehtiyoj sezmayapti.

Inson kapitaliga sarmoya kiritish, farzandlarimizni ertangi kunimizning suyanchi va tayanchi bo‘la oladigan insonlar sifatida kamol toptirishiga qaratilayotgan e’tibor samarasini bugun turli mintaqaviy va xalqaro olimpiadalarda yuqori o‘rinlarni egallab, yurtimiz sha’nini ko‘tarayotgan iqtidorli o‘g‘il-qizlar misolida ko‘rish mumkin. Iqtidorli o‘quvchilarimiz nufuzli fan olimpiadalarida 66 ta oltin, 147 ta kumush, 221 ta bronza medal olgani inson kapitaliga sarmoya kiritish, farzandlarimizni ertangi kunimizning suyanchi va tayanchi bo‘la oladigan insonlar sifatida kamol toptirishiga qaratilayotgan e’tibor samarasidir.

HAQIQIY KO‘MAKCHI

Dilbar HAYDAROVA,
“Ko‘mak” loyihasi rahbari:

— Bugun yoshlarga qaratilayotgan e’tiborni har birimiz o‘z hayotimiz misolida ko‘rib turibmiz. Ta’lim olish, zamonaviy kasb-hunar egallash, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishimiz uchun yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar bizga katta ishonch bag‘ishlaydi. Yoshlarning g‘oya va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash ularning jamiyat hayotidagi faolligini yanada oshirmoqda. Birgina misol, “Ko‘mak” loyihasi jadid bobolarimiz boshlab bergan yo‘lining davomi o‘laroq, bugun mustaqil O‘zbekistonning minglab yoshlariga ilm olishi uchun haqiqiy ko‘makchi bo‘lmoqda.

Loyiha, eng avvalo, yoshlar bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va yangi ish o‘rinlarini yaratish borasidagi islohotlar mahsuli, desak xato bo‘lmaydi.

“Ko‘mak” dasturi doirasida 130 million so‘mgacha foizsiz ssuda ajratish imkoniyati yo‘lga qo‘yilishi natijasida olis va chekka hududlarda qisqa muddatda 500 ga yaqin xorijiy til o‘quv markazi faoliyat boshladi. Bu yoshlar uchun yangi bilim va kasb imkoniyatlari eshigini ochdi.

“Ko‘mak” loyihasi ishtirokchilari uchun ijobiy imkoniyatlar yanada ko‘paymoqda. Jumladan, loyiha doirasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan yosh tadbirkorlar uchun 300 million so‘mgacha foizsiz ssuda ajratish tizimi joriy etilishi ularning biznesi ko‘lamini kengaytirish va yangi ish o‘rinlari yaratish imkonini beradi.

Olis hududlardagi o‘quv markazlari uchun soliq imtiyozlari qo‘llanilib, ijtimoiy soliq 1 foiz, o‘qituvchilar uchun daromad solig‘i 7,5 foiz etib belgilanishi sohadagi xususiy tashabbuslarni yanada rivojlantirishga kuchli turki bo‘lmoqda.

Yoshlar ishlari agentligiga xususiy o‘quv markazlari bilan hamkorlikda yiliga 20 ming yoshni kelajak kasblariga o‘qitish vazifasi yuqilatilgani tizimli islohotlarning mantiqiy davomidir.

Biz “Ko‘mak” loyihasi doirasida ushbu islohotlarni amaliy qo‘llab-quvvatlab, yoshlarni zamonaviy kasblarga tayyorlash, biznes boshlash va iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qiladigan yangi loyihalarni kengaytirish ustida ishlashda davom etamiz.

Davlatimiz berayotgan bu imkoniyatlar yoshlar uchun nafaqat moddiy qo‘llab-quvvatlash, balki katta ishonch va mas’uliyat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda.

IMKONIYAT VA ISHONCHNI HIS QILIB YASHAYMAN

Yoqutxon YUSUPOVA,
“El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendianti, AQSHning Boston universiteti magistraturasi talabasi:

— 2017-yil Toshkent davlat yuridik universitetini tamomlab, shu yilning o‘zidayoq Adliya vazirligiga ishga qabul qilindim. Endigina o‘qishni bitirgan, ishlash borasida hech qanday tajribasi yo‘q yosh kadr uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri vazirlikda ish boshlash katta imkoniyat va ishonch edi. Vazirlikdagi mehnat faoliyatim davomida eng tajribali ustozlarimdan ishlash va qonunchilik hujjatlari loyihalarini tayyorlash, ularni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini o‘rgandim. Yosh kadr bo‘lishimga qaramay, menga qonunchilik hujjatlari loyihalarini tayyorlashda ishtirok etish, xorijiy davlatlarda xizmat safarlarida bo‘lib, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish va o‘z takliflarimni bildirish imkoniyati berildi. Natijada notariy, advokatura va mediatsiya

sohalarida yigirmadan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqishda ishtirok etdim.

Faoliyatim davomida advokatura sohasini raqamlashtirish tashabbuslarini ilgari surib, “Yuridik yordam” axborot tizimi ishga tushirilishida o‘z hissamini qo‘shdim.

Bundan tashqari, menga vazirlik tomonidan Adliya vazirligi BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda tashkil etilgan bepul yuridik yordam ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan nodavlat-notijorat tashkilotlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tanlovlarni tashkil qilish, Advokatlar palatasining Oliy malaka komissiyasi a‘zosi sifatida faoliyat yuritish, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatda qonun loyiholari himoyasida ishtirok etish kabi imkoniyatlar berildi.

Sevimli kasbimda ishlab, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish, xorijiy

BARQAROR EKOLOGIYA – SALOMATLIK, TINCHLIK VA RIVOJLANISH DEMAK

Lobarxon JALOLOVA,
Xalqaro yoshlar ekologik qo‘mitasi raisi:

— Bugungi shiddatli va tezkor bir davrda yoshlardan har sohada faol bo‘lish, serqirra va yangilikka intilish talab qilinadi. Bu e’tibor va g‘amxo‘rlik ularni yangi marallar sari undab, orzularga qanot bag‘ishlamoqda. Erishgan muvaffaqiyatlarim bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Prezidentimizning kitobxonlikka chaqiriqlari meni ham ruhlantirmay qolmadi. Mumtoz adabiyotga qiziqishim tufayli Alisher Navoiy ijodini o‘rgandim va mutafakkirim 300 ga yaqin g‘azalini yod oldim. O‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarim zo‘yre ketmadi. “Navoiylik yosh navoiyxonlar” tanlovida g‘olib bo‘ldim va Prezidentimiz sovg‘asi — avtomobil bilan taqdirlandim. Tengdoshlarim taqdiriga ham befarq emasman, albatta. Jamiyatda o‘z o‘nim bo‘lishi, yoshlarni ezgu maqsad sari yetaklashni xohlayman. Shu maqsadda O‘zbekiston yoshlar ishlari agentligi tizimidagi sardorlik va volontyorlik harakati menga katta maqtab bo‘ldi. Tizimda yoshlar bilan ishlash, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, madaniy va ta’limiy loyihalar orqali yangi imkoniyat va imtiyozlardan xabardor qilishga intildim. Faolligim tufayli oliy ta’lim muassasasiga muddatidan oldin grant asosida talabalikka tavsiya etildim. Talabalik yillari o‘z ustimda ishladim, ingliz tilini o‘rgandim va bir qator tanlovlarda, jumladan, “Yil talabasi”, “Munozara” intellektual turnirlarida ishtirok etib, sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritdim. Navoiy nomidagi davlat stipendiya-siga loyiq ko‘rildim. 2023-yilda Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibi bo‘ldim. Ta’limning keyingi bosqichi, ya’ni magistraturani Yangi O‘zbekiston universitetida davom ettirdim va xorijiy standartlar asosida sifati ta’lim oldim.

Ayni damda Xalqaro yoshlar ekologik qo‘mitasiga raislik qilmoqdaman. Iqlim o‘zgarishlari bugungi kunda asosiy global tahdidga aylanib, geosiyosiy keskinlik kuchayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Iqlim



tahdidlariga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhim. Markaziy Osiyo hamda turkiy davlatlar yoshlari tomonidan ekologik masalalarda nav-qiron avlodning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qator tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xalqaro yoshlar ekologik qo‘mitasining asosiy maqsadi esa ekologik masalalarda yoshlarning samarali mintaqaviy hamkorligini rivojlantirish, axborot almashish va birgalikda loyihalar tashkil etishdan iborat. Hamkorlikda o‘tkazilayotgan tadbirlarda zamonaviy bilim, innovatsion g‘oya va raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali ekologik muammolarga samarali yechimlar taklif etilyapti. Suv resurslaridan oqilona foydalanish, yashil hududlarni kengaytirish, cho‘llanishga qarshi kurashish va iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish borasidagi qo‘shma tashabbuslar barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi. Yoshlarni birlashtiruvchi xalqaro tadbirlar kelajak avlod o‘rtasidagi do‘stlik, hamjihatlik va umuminsoniy qadriyatlarini mustahkamlaydigan muhim vositadir.

ta’lim olishimiz uchun ham imkoniyat berildi. 2025-yilda “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiyasi sovrindori bo‘lib, hozir dunyoning eng yaxshi 100 talikka kirgan universitetlaridan biri bo‘lgan AQSHning Boston universitetida buqir sohasida magistraturada tahsil olmoqdaman.

AQSHda ta’lim olish jarayonida shu mamlakatning advokatura, nizolarni sudga qadar muqobil hal etish, mediatsiya sohasidagi tajribasi, xalqaro nizolar va xorijiy davlatlar ishtirokidagi munosabatlarda huquqshunos ishtirokining ko‘nikmalari, xalqaro shartnomalar va tijorat huquqiga oid bilimlarni tajribali huquqshunos professorlardan o‘rganmoqdaman.

O‘qishni muvaffaqiyatli tamomlab, vatanimga qaytgach, O‘zbekistonda advokatura va nizolarni muqobil hal etish, xalqaro munosabatlar, shartnomalar hamda tijorat huquqi sohaslarini rivojlantirishda o‘z tashabbusim bilan faol ishtirok etishni maqsad qilganman.

KEYINGI “YUNIKORN” KOMPANIYALARDAN BIRI O‘ZBEKISTONDAN CHIQAADI

Sardor DAVLATOV,
“NavAI” startapi asoschisi:

— So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlar va innovatsiyalarga munosabat tubdan o‘zgardi. Bugun g‘oyasi bor yoshlar uchun nafaqat moliyaviy, balki ta’lim, mentorlik va xalqaro imkoniyatlar ham yaratilmoqda.

President Tech Award kabi tashabbuslar orqali startaplار qo‘llab-quvvatlanaypti, xalqaro akseleratsiya va dasturlarda ishtirok etish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu esa yoshlarda “men ham dunyo miqyosida mahsulot yaratola-man” degan ishonchni shakllantiradi. Eng muhimi, endi yoshlar xato qilishdan qo‘rqmaydigan muhit shakllanmoqda, innovatsiya esa aynan shunday erkinlikdan tug‘iladi. Menimcha, eng katta o‘zgarish yoshlarga endi faqat ish izlovchi emas, balki ish o‘rinlari yaratuvchi inson sifatida qaralayotganidir.

NavAI — sun’iy intellekt asosida ishlovchi ovozi agentlar platformasi. Oddiy qilib aytganda, inson o‘rniga qo‘ng‘iroqlarga javob qaytaradigan, ma’lumot beradigan va turli jarayonlarni avtomatlashtiradigan SI xodimlar yaratamiz.

Bu g‘oya butunlay tasodifan tug‘ilgan. Bir kuni do‘stimga AQSHda — yo‘l harakati idorasi uchun navbat band qilishda yordam berayotgandim. Qo‘ng‘iroq qildim, narigi tomondagi “xodim” barcha ma’lumotlarimni olib, navbatni rasmiylashtirdi — men uni jonli odam deb o‘ylagandim. Shubhat oxirida u o‘zining sun’iy intellekt ekanini aytib, qo‘ng‘iroqi baholashimni so‘radi. Men hayratda qoldim va o‘yladim: bu nega o‘zbek tilida ishlamasligi kerak?

Ko‘plab tashkilotlarda odamlar bir xil savollarga qayta-qayta javob beradi, koll-markazlar katta xarajat talab qiladi, liniyalar band bo‘ladi va kechasi yoki dam olish kunlari hech kim javob bermaydi. Natijada fuqaro xizmatidan uzilib qoladi. Shu bilan birga, dunyodagi zamonaviy Voice SI texnologiyalari asosan ingliz tili uchun yaratilgan — o‘zbek va Markaziy Osiyo tillari deyarli qamrab olinmagan. Biz aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishni maqsad qildik.

Bugungi kunga qadar platformamiz orqali 51 mingdan ortiq qo‘ng‘iroq qayta ishlangan, ularning qariyb 60 foizi operator aralashuvisiz hal etilgan. Demak, biz tanlagan yo‘l ishlayapti.

Men uchun eng katta natija biror mukofot emas, balki mahsulotimiz real hayotda insonlarga xizmat qilayotganidir. Biz faxrlansa arziydigan bir nechta bosqichni bosib o‘tdik.

E‘TIROFDAN KO‘NGLIM TOG‘DEK YUKSALDI

Qobiljon SHERMATOV,
bolalar yozuvchisi, “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti sohibi:

— Yosh qalamkash sifatida bugungi kunda navqiron avlod vakillariga berilayotgan imkoniyatlardan ruhlanaman. Mamlakatimizda ta’lim, ilm-fan, adabiyot va madaniyat sohalariga qaratilayotgan e’tibor biz yoshlarning orzu-maqsadlarimizga erishish, ijod qilishimizga katta turki bo‘lmoqda.

Kishi maqsadi sari yo‘lga chiqar ekan, bu safarning qanday yakun topishi so‘zsiz “safar” egasining niyatiga bog‘liq. Ha, agar u bu safardan yengil-yelpi xohishlarni niyat qilgan bo‘lsa, natija ham shunga yarasha bo‘ladi. Bordi-yu, oliy niyat bilan qadam bosgan bo‘lsa, unda bu safar nafaqat o‘zi, balki boshqalar uchun ham birday manfaatli bo‘ladi. Men bu qoida adabiyot olamida ham nechog‘liq haq ekaniga guvoh bo‘lganman. Adabiyotning chinorlari deya e’tirof etiladigan ustoz adiblarga yaqin yurib bildimki, ularning yelkasiga ortgan yuklari ham juda katta. Buning aksi o‘laroq, maydonda na o‘rni na so‘zini topa olgan ijodkorning shu jihatiga nazar tashlasam, uning niyati ham qanchalar mayda ekanini ko‘rganman. Shuning uchun, avvalo, o‘zimni, qolaversa, adabiyot olamiga qadam qo‘yayotgan qalam ahlini niyatni pok qilishga chaqirib qolaman.

Qo‘limga qalam oldimmi, xuddi butun dunyo bolalariga so‘z aytayotgandek, oq va qorani tanitayotgandek sezaman o‘zimni. Agar qaysidir bolaning tabiatida biror kamchilikni ko‘rsam, negadir o‘zimni aybdor his qilaman. “Qandaydir kitob yozsam bo‘lardi-yu”, deyman o‘zimga o‘zim.

Shu kunga qadar “Balki Mosh ham tush ko‘rar”, “Qishloqjonim”, “Bir quloqli qo‘zichoq”, “Buvamning oshqozonidagi mamlakat-1”, “O‘tkirjonning o‘nta o‘rdak ukasi”, “Tolqonbotir”, Ulug‘bek Popkorn sayyorasida, “Buvamning

“Yoshlar uchun 1000 kitob” loyihasi doirasida saralangan 113 ta kitobdan 87 tasiga tarjima huquqi olindi. Shundan 47 nomdagi kitob 140 ming nusxada chop etilib, kitobxonlarga yetkazildi.



NavAI startapi President Tech Award‘ning sun‘iy intellekt yo‘nalishi bo‘yicha g‘olib bo‘ldi va 50 ming AQSH dollari miqdoridagi grantga sazovor bo‘ldi. Yaqinda esa biz Yoshlar Venturesdan 80 ming AQSH dollari investitsiya jalb qildik. Bundan tashqari, GSMA M360 Eurasia xalqaro tanlovda 1-o‘rinni egallab, 2027-yilgi MWC Barcelona ko‘rgazmasida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritdik, Web Summit Qatar konferensiyasida qatnashdik va ElevenLabs kabi jahonning yetakchi SI kompaniyalari bilan muloqot qildik.

Lekin eng katta yutuq davlat tashkilotida Voice Agent‘imizni ishga tushirganimiz va minglab fuqarolar undan aynan o‘z ona tilida foydalanayotganini ko‘rishdir. Aynan shu biz tanlagan yo‘l to‘g‘ri ekanini isbotladi.

O‘zimizni faqat O‘zbekiston startapi sifatida emas, balki butun Markaziy Osiyo uchun Voice SI infratuzilmasini yaratayotgan kompaniya sifatida ko‘ramiz.

Yaqin yillarda Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston bozorlariga chiqishni rejalashtirganmiz. Hozir, asosan, yirik korxonalar bilan ishlayapmiz, kelajakda esa kichik va o‘rta biznes ham texnologiyamizdan foydalana olishi uchun yechim ishlab chiqmoqchimiz. Keyingi maqsadimiz esa past resursli tillar uchun dunyodagi yetakchi Voice SI kompaniyalaridan biriga aylanish.

Biz nafaqat texnologiya yaratishni, balki O‘zbekistondan global texnologik kompaniyalar chiqishi mumkinligini butun dunyoga ko‘rsatishni istaymiz. Ishonamanki, keyingi “yunikorn” kompaniyalardan biri aynan O‘zbekistondan chiqadi va biz shu yo‘lda harakat qilayapmiz.



oshqozonidagi mamlakat-2”, “Qilichsiz g‘alaba”, “Ulug‘bek va do‘stlari kiyik ovida” asarlarim chop etildi.

“Buvamning oshqozonidagi mamlakat” asarim “Bolalar va yoshlar uchun eng yaxshi kitob” deya e’tirof etildi. Uchinchi sinflar uchun maktab darsligiga kiritildi. “Yosh kitobxon” tanlovining 10-14 yosh toifasida o‘qilishi shart bo‘lgan asarlar ro‘yxatidan joy oldi. Qolaversa, 2022-yilda “Bolalar va o‘smirlarga bag‘ishlangan eng yaxshi kitob” tanlovida g‘olib deb topildi. 2025-yilda esa Xalqaro bolalar adabiyoti kengashining Honour List faxriy ro‘yxatiga kiritilgan Markaziy Osiyo tarixidagi ilk badiiy asar bo‘ldi.

O‘tgan yili “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan taqdirlandim. Prezidentimiz mukofotni ko‘ksimga qadar ekan “Qobiljon, men sizning katta-katta yutuqlarga erishganingizni ko‘rdim, kelajakda sizga bundan ham katta davlat mukofotlarini topshirish nasib qilsin”, deya bir oddiy qalamkashning ko‘nglini tog‘dek ko‘tardi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA tayyorladi.

**“Temur tuzuklari” —
milliy davlatchiligimiz
dasturi****BEBAHO VA
ESKIRMAS DASTURULAMAL****Amir Temurning ilm-fan
haqidagi qarashlari**

Har mamlakatga shayxulislom yubordimki, toki musulmonlarni gunoh ishlardan qaytarib, ularni yaxshi va savob ishlarga undasin.

Musulmonlarga diniy masalalardan taʼlim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim.

Kimki Muhammad dinini qoʻllab-quvvatlasa, sen ham uni qoʻllagil, kimki, Muhammad dinini xor qilsa, sen ham uni xor tutgil.

Hech kimdan oʻch olish payida boʻlmadim. Tuzimni totib, menga yomonlik qilganlarni Parvardigori olamga topshirdim. Soffdil kishilar, sayyidlar, olimlar va fozillarga dargohim doim ochiq edi. Nafsi yomon himmatsizlarni, koʻngli buzuq qoʻrqoqlarni majlisimdan quvib yubordim.

Yozilgan narsa avlodlar xotirasida qilingan ishdan ham uzoqroq yashaydi.

Bilagi zoʻr — birni yiqar, bilimi zoʻr — mingni.
Soʻzlaguvchi gar nodon erur, tinglaguvchi dono oʻlsin.

Aziz avliyolar, sahobalar maqbaralarini, qutlugʻ qadamjolarni ziyorat etmoqni ham farz, ham qarz bilur edim. Qayda boʻlmay, ziyoratgohlar oldida otdan tushib, tahorat olgach, yalang oyoq bilan borib, ziyoratni oʻrinlatdim. Arkonu davlat, barcha mulozimlarim ham ziyoratgohlarni ana shunday tavof etmoqni odat bilishdi.

Piru komil shayx Bahouddin Naqshbandiyniing “Kam yegin,

KITOB (bitik) — barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni oʻrgatuvchi murabbiydir.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

*Adabiy do'stlik - abadiy do'stlik***“Oq kema”da
xat keldi**

“Bu — Issiqkoʻl. U yerda suv bilan osmon bir-biriga tutashib turardi. Undan narida hech nima yoʻq. Koʻl harakatsiz, shuʼlador, kimsasiz. Faqat qirgʻoqqa urilayotgan toʻlqinlarning oppoq koʻpigini arang ilgʻab olish mumkin,” deb yozadi Chingiz Aytmatov “Oq kema” asarida.

Oʻquvchilik yillarim “Oq kema”ni negadir qayta-qayta oʻqirdim. Shu nomdagi mashhur badiiy filmni ham televizordan berilganda har safar qoldirmasdan koʻrib borardim. Oʻzimcha ularni taqqoslagan, tahlil qilgan boʻlardim.



**Gʻayrat MAJID,
Oʻzbekiston Yozuvchilar
uyushmasi aʼzosi**

Men Chingiz Aytmatov asarlarida tasvirlangan badiiy olam shaydosi edim. Tabiiyki, bu olamdan toplanlarim — Jamila, Saidjon, Doniyor, Ilyos, Asal, Moʻmin chol, uning baliqqa aylangan nabirasi... Tanaboy, uning oti — Gulsari kabi qahramonlarigina emas, keng bugʻdoyzorlar, dashtu yaylovlar, togʻu toshlar, oʻru qirlar, gulu giyohlar va yana asonaviy Issiqkoʻl... barcha-barchasi men uchun gʻoyatda qadrlı edi. Bugun esa, mana, Issiqkoʻldaman!..

Chingiz Aytmatov nomidagi Issiqkoʻl xalqaro forumining 40 yillik yubiley anjumaniga taklif xati keldi. Xuddiki, menga bu xatni oq kema yetkazdi. Toʻgʻri, men Qirgʻizistonga — Bishkekka xizmat yuzasidan uch-toʻrt marotaba borganman. Issiqkoʻlga esa yoʻlim tushmagan edi. Shuning uchun boʻlsa kerak, taklif xati olganimda yosh boladai xursand boʻlib ketganimni aytmayisizmi...

Soat kechki beshlar chamasi Manas xalqaro aeroportiga qoʻndik. Bizni kutib olgan yigit oʻzini Mirsaid deb tanishtirdi va darhol shahar markazidagi mehmonxona tomon mashinani yeldirib ketdi. Uni qarangki, mehmonxona nomi “Oq kema” ekan. Bir qarashda kemani eslatib yuboradigan binodagi oʻzimizga ajratilgan xonalarga joylashdik.

**“Ota beyit” —
muqaddas ziyoratgoh**

Ertalab xorijdan kelgan mehmonlar, qirgʻiz adiblari jam boʻlib, avtoulovlarga oʻtirib, Chingiz Aytmatov qabrinı ziyorat qilish uchun “Ota beyit” ziyoratgohiga yoʻl oldik. “Ota beyit” milliy tarixiy-memorial majmuasi — qirgʻiz xalqi tarixining eng fojiali sahifalarini oʻzida jamlagan ziyoratgoh. Majmua Bishkek shahridan 30 chaqirimcha janubda, Olatov etagida joylashgan. Xalq xotirasi, milliy oʻzlikni anglash va oʻtmish qurbonlariga boʻlgan cheksiz hurmatning ramzi hisoblanmish “Ota beyit” soʻzi “otalar qabri” maʼnosini anglatadi.

Majmua xodimining hikoya qilishicha, ushbu ziyoratgohning tashkil topishi XX asming eng mudhish sirlaridan biri ochilishi bilan bogʻliq. 1938-yilning noyabr oyida sobiq Ichki ishlar xalq komissarligi (NKVD) tomonidan 137 nafar millat oydini — qirgʻiz xalqining fidoyi farzandlari otib tashlangan. Jasadlar esa Chontosh qishlogʻidagi gʻisht zavodining eski xumiga tashlanib, tuproq bilan koʻmib yuborilgan. Mustabid tuzum bu jinoyatni sir saqlashga uringan. Ammo bir qizaloq bu qoʻrqinchli voqealarni koʻrib qolgan. Uning bu mudhish hodisalarga guvoh boʻlganini otasidan boshqa hech kim bilmagan.

**TAFAKKURNI
UYGʻOTUVCHI BESHIK**

Bu sir oradan 53 yil oʻtib, 1991-yilda oshkor boʻldi. Oʻsha mashʼum voqealar guvohi boʻlgan Bubuyra Qidiralieva ismli ayol otasining vasiyatiga koʻra, ommaviy qabr joyini Qirgʻiziston davlat xavfsizlik tashkilotiga maʼlum qilgan. 1991-yil yozida olib borilgan qazishma ishlari natijasida shahid ketganlarning xoki va shaxsiy buyumlari topiladi. 1991-yil 30-avgustda ular ushbu hududda qayta dafn etiladi. Shahid ketganlar safida ulugʻ adib Chingiz Aytmatovning otasi — Toʻraqul Aytmatov ham boʻlgan. Keyinchalik 2000-yilda bu yerda memorial majmua barpo etiladi.

Shu maʼnoda, “Ota beyit” shunchaki qabriston emas, balki tarixiy haqiqat va adolat tiklangan maskandir. Qirgʻizistonga tashrif buyuradigan xorijiy davlat rahbarlari, diplomatlar va rasmiy delegatsiyalar ushbu majmuaga kelib, qurbonlar xotirasiga hurmat bajo keltiradi. Bishkekka yoʻli tushgan ziyoli borki, bu joyni, albatta, ziyorat qiladi. Shuningdek, 8 noyabr Qirgʻizistonda Tarix va ajdodlarni xotirlash kuni etib belgilangan. Shu munosabat bilan bu yerda davlat darajasidagi tadbirlar oʻtkaziladi va oʻtganlar haqida duoyu xayrlar, tilovatlar qilinadi. Biz ham bu maskanni ziyorat qilar ekanimiz, xayolimizdan oʻzimizdagi “Shahidlar

davomida bir qancha vatandoshlarimiz bilan suhbatlashdik. Qirgʻizlar Issiqkoʻlni “Qirgʻiziston durdonasi” deyishadi. Menga qolsa bu joyni “Markaziy Osiyo durdonasi” deb atagan boʻlardim.

Issiqkoʻl dengiz sathidan 1607 metr balandlikda, Tyanshan togʻ tizmalari bagʻrida joylashgan. U dunyodagi eng yirik baland togʻ koʻllari roʻyxatida Janubiy Amerikadagi Titikaka koʻlidən keyin ikkinchi oʻrinda turadi. Uzunligi 182 kilometr, kengligi qariyb 68 kilometrni tashkil etadi. Ushbu ulkan havzaning eng chuqur joyi 668 metrga yetadi. Suv tarkibida tuz miqdori yuqoriligi hamda ulkan suv hajmi sababli Issiqkoʻl qahraton sovuqda ham muzlamaydi. Issiqkoʻl nomi shundan kelib chiqqan boʻlsa, ajab emas. Yana yuzdan ortiq katta-kichik togʻ daryosi quyilsa-da, birotasi oqib chiqmaydi. Bu esa koʻlning oʻziga xos tabiiy soffligi, ozodaligini va suvining nihoyatda tiniq boʻlishini taʼminlaydi.

Xullas, bu betakror tabiat moʻjizasini koʻrib, ulugʻ adib Chingiz Aytmatov anjuman oʻtkazish uchun bejiz Issiqkoʻl boʻylarini tanlamaganiga amin boʻldim.

**Dunyo ziyolilarini
birlashtirgan maydon**

xotirasi” maydoni, shoʻro qatagʻoni qurboni boʻlgan oʻzbekning gul farzandlari Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Choʻlpon, Tavallo, Munavvarqori Abdurashidxonov singari ulugʻlar oʻtdi.

Qirgʻiziston xalq shoiri Xoʻjaʼgʻeldi Kultegin 1991-yilga qadar Chingiz Aytmatov ham otasi qabri qayerda ekanini bilmaganini, keyinchalik ustoz adib ham oʻz vasiyatiga koʻra shu yerga qoʻyilganini izitrob bilan hikoya qilib berdi. Forum avvalida tashkil etilgan bu mahzun ziyorat qalbmizni oʻrtaganı rost. Biroq bir taskin ham borki, bugun ularning qabri topildi. Mustabid tuzumning zulmkor qilmishi fosh boʻldi. Mustaqillik neʼmatini asrab-avaylash uchun bunday aziz tuproqlarni ziyorat qilish eng ulugʻ ibratdir.

Qirgʻiziston durdonasi

Aytmatov asarlari orqali taniganim — Issiqkoʻlni koʻrish bolalikdan katta orzum edi. Bugun yuzi oʻz koʻzlarim bilan koʻrib turibman. Yozuvchi tasvirlaganicha bor ekan. Musaffo osmon, u yer-bu yerida oppoq parqu bulutlar, qoʻsochli togʻ choʻqqilari va ularning bagʻrida sirli ravishda mavjlanib turgan zangori koʻl... Yoʻgʻ-e, dengiz... Issiqkoʻl dengizi! Oʻzining moʻʼtadil, yoqimli iqlimi, musaffo havosi va qaynoq sohillari bilan dunyoga tanilgan, baland togʻlar bagʻridagi ulkan suv havzasi bugungi kunda mintaqamiz aholisi, xususan, yurtdoshlarimiz uchun sevimli dam olish maskanlaridan biriga aylanib ulgurdi. Safar

Issiqkoʻl faqat sayyohlik maskani emas, balki dunyo ziyolilarini birlashtirib kelayotgan ulkan maʼrifat-maʼnaviyat, fikr-mulohaza, taklif-tashabbus maydoni hamdir. Bundan roppa-rosa 40-yil avval, 1986-yilda dunyoga mashhur qirgʻiz adibi va mutafakkiri Chingiz Aytmatov tashabbusi bilan birinchi Issiqkoʻl xalqaro forumi tashkil etilgan edi. U paytlarda sobiq sovetlar mamlakati hukm surib turgan, qizil shoʻr tarkibidagi respublikalar bir qadargina yengil nafas olishni boshlagan pallalar boʻlgan. Ammo jiluv sobiq shoʻr hukumati qoʻlida boʻlgan. Shu maʼnoda, bu forum Chingiz Aytmatovning haqiqiy maʼnodagi jasorati mahuulidir.

Birinchi uchrashuvdoyoq forum dunyoning eng tanilgi shoir, yozuvchi, dramaturg, olim va sanʼatkorlari boshini birliktirgan. Aytmatovning shaxsiy taklifi bilan dunyoning 17 mashhur ziyolisi anjumanda ishtirok etgan. Bular orasida Nobel mukofoti sohibi Klod Simon, mashhur adiblar Artur Miller, Jeyms Bolduin, Yashar Kamol, mashhur aktyor, dramaturg va rejissyor Piter Ustinov boʻlgan. Anjuman haqida Chingiz Aytmatov “Biz Issiqkoʻl qirgʻoqlarida shunchaki diydorlashish uchun emas, balki sayyoramiz taqdiri haqida fikr yuritish, yangicha fikrlash madaniyatini yaratish va insoniyatni maʼnaviy halokatdan qutqarish yoʻllarini birgalikda izlash uchun yigʻildik. Bu koʻl dunyo tafakkurini uygʻotuvchi beshikdir,” degan edi.

Oradan 11 yil oʻtib, 1997-yilda yana Issiqkoʻl forumi boʻlib oʻtadi. Bu tadbirga ham Aytmatovning oʻzi bosh

boʻladi. Anjumanda UNESCOning oʻsha paytdagi Bosh kotibi, ispaniyalik olim va yozuvchi Federico Mayor, mashhur siyosatchi Mixail Gorbachyov, atqli shoir va yozuvchilar Yevgeniy Yevtushenko, Muxtor Shaxanov, habashistonlik mashhur rassom va haykaltarosh Afeyerk Tekle faol ishtirok etgan. Oʻzbekistondan Oʻzbekiston Qahramoni, xalq yozuvchisi Toʻlepbegen Qayipbergenov, atqli oʻzbek adiblari Ahmad Aʼzam, Salim Ashur, Amirqul Karim qatnashgan.

2018-yil boʻlib oʻtgan Issiqkoʻl xalqaro forumi ulugʻ adib Chingiz Aytmatov tavalludining 90-yilligiga bagʻishlangan edi. Mazkur anjumanda dunyoning 25 davlatidan 155 nafar tanilgi yozuvchi, olim va jamoat arbobi ishtirok etgan.

Qozoq sheʼriyatining yorqin namoyandalaridan biri Oʻljas Sulaymonov, Oʻzbekiston Qahramoni, adabiyotshunos olim, tarjimon Ibrohim Gʻafurov, Oʻzbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan jurnalist, aytmatovshunos olim Ahmadjon Meliboyev, filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboyev kabi atqli adib va olimlar ishtiroki oʻz vaqtda forum nufuzini oshirishga xizmat qilgan deb aytishimiz mumkin.

Birgalikda kelajak sari

Joriy yilning 18-21-iyun kunlari Issiqkoʻl xalqaro forumining navbatdagi anjumani boʻlib oʻtdi. Bu yilgi tadbir “Dunyo ammduni burilish pallasida: birgalikda kelajak sari” shiori ostida iqlim inqirozi, suv taqchilligi, xalqaro hamkorlikni mustakmlash va sunʼiy intellekt (AI) asrida umuminsoniy qadriyatlamı asrab-avaylashga bagʻishlandi. Anjumanni Qirgʻiz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov ochib berdi. Forum hamisha atqli davlat va jamoat arboblari, ilm-fan, adabiyot va sanʼat namoyandalarini oʻz atrofida birlashtirib kelgan. Anjumanda 17 mamlakatdan saksondan ortiq vakil ishtirok etdi. Oʻzbekistondan ham nufuzli delegatsiya qatnashdi.

Bu galgi Issiqkoʻl forumida qator masalalar kun tartibiga qoʻyildi. Ushbu yubiley forum yakunida tadbirni har toʻrt yilda bir marta anʼanaviy tarzda oʻtkazish, yosh olimlar va izlanuvchilarni qoʻllab-quvvatlash maqsadida Chingiz Aytmatov nomidagi xalqaro stipendiya joriy etish, BMTga Issiqkoʻl forumiga xalqaro maqom berish hamda uni global gumanizm, yadrosiz va xavfsiz dunyo gʻoyalarini ilgari surishga xizmat qiluvchi hamkor tuzilmalar qatoriga kiritish masalasini koʻrib chiqish toʻgʻrisida murojaat etish kabi tashabbuslar boʻyicha maxsus rezolyutsiya qabul qilindi.

Nufuzli anjumanda adabiyot yoʻnalishidagi Nobel mukofoti sohibi, xitoylik mashhur adib Mo Yan ham ishtirok etib, forumning tarixiy maqomiga yuqori baho berdi: “Aytmatov asos solgan bu forum insoniyat oʻzini anglashi uchun dunyoga ochilgan betakror koʻzgudir. Issiqkoʻlning sof suvi bizga global ekologik va texnologik inqirozlar davrida qalbmizni toza saqlashni eslatib turadi”.

Anjumanda bu kabi fikr-mulohazalar koʻplab ishtirokchilar tomonidan aytiladi. Hikmatmonand soʻzlarni tinglab, bir mulohazaga borasan kishi: adabiyot doimo qalblarni birlashtirib, qalqib turgan dunyoda egzulik mangu ekanini eslatib turadi. Tinchlik, umuminsoniy qadriyatlamı asrab-avaylashni ongu shuurimizga singdiradi.

Ana shunday xayrli eʼtiroflar koʻngildan kechar ekan, kechimalaring beixtiyor tilingga koʻchadi: adabiyot — buyuk moʻjiza! Adabiyot — buyuk qudrat! Yashasin adabiyot!..

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
**Oʻzbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK shukr ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

Qabulxona: (71) 233-56-33
Eʼlonlar boʻlimi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-646.
30166 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qogʻoz bichimi A2.** Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon koʻchasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Roʻziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz koʻchasi, 85-uy